

INTEGRATSION DARSLAR ORQALI KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH

Sharopova Nodirabegim

FarDU talabasi

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy rivojlanishning o'ziga xos yo'liga ega bo'ldi. Bu yo'ldagi chuqur o'zgarishlar barcha jabhalarga shiddat bilan kirib bormoqda. U tibbiyotmi, qishloq xo'jaligimi, sanoatmi, ta'lim tizimimi - barchasida tub islohotlar o'tkazish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Mustaqillik, ayniqsa, ta'lim sohasida tub islohotlar omiliga aylandi desak, xato bo'lmaydi. Zero, ta'lim o'sib kelayotgan yosh avlodning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini yuzaga chiqarish bilan birga, kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning ham asosiy manbasi hisoblanadi. Bu qobiliyat va iste'dodlar o'sib-ulg'ayib Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shishi aniq. Modomiki, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yosh avlodga tayanar ekanmiz, avvalambor, ta'lim sohasidagi mustabid tuzum qoldiqlaridan xalos bo'lishimiz lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qatorida bolalarni ta'limga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga doir dolzarb vazifalar belgilab berildi. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'iahlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining qoidasi bo'lishi kerak" deb nomlangan ma'ruzasida maktabgacha ta'lim sohasidagi bolalarni qamrab olish atigi 27 % ni tashkil etishi va bu sohadagi ishlar

e'tibordan chetda qolganligi ta'kidlab o'tildi. Shuning uchun ham O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlarini joriy etish orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari ko'rilmoqda. Integratsiyaga xos bo'lgan dialektik an'analarning u yoki bu jihatlari insonni har tomonlama mukammal rivojlantirish bo'yicha mavjud bo'lgan pedagogik g'oyalarda (Aristotel, Pestalotskiy ...) zamonaviy pedagogika hamda zamonaviy pedagogikada keng tarqalgan ta'lim va tarbiyaning, shaxs va jamoaning, faoliyat va bilishning dialektik birligi o'z aksini topgan. Dialektik unsur ko'pgina mashhur pedagoglarning ta'limiy-tarbiyaviy tizimiga xosdir.

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilyapti. Bu tushunarli - kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir. Bolalarni tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob bo'ladimi? Bu masala qanday yechilishi kerak, uning mohiyati nimada? Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayvorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional

tomondan, badiiy asarda va ilmiy-ommabop maqolada, biolog, soʻz ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazaridan va boshqalar. Asosiy fanlarni oʻzlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni oʻrnatish taʼlimni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga koʻp marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshda tushunarli boʻlgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va oʻtkazish tartibiga ega boʻlgan, tarkibiga shu oʻquv predmetiga tegishli boʻlgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa oʻquv predmetlari bilan bogʻliq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, «qish», «sovuq», «boʻron» kabi tushunchalar oʻqish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy sanʼat darslarida koʻrib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa oʻquv darslarida oʻzlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin boʻlishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, oʻziga xos oʻtish metodikasiga ega boʻladi. Integratsion pedagogika oʻquv fanlaridan biri boʻlib, fanlararo bilimlar (integrativ bilimlar)ni chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish uchun oʻrganiladi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya obyektlari asosida tuzilgan. Integratsion pedagogikaning sinflarga boʻlinishini turli asoslarda qilish mumkin: maqsad va muammolar asosida; maktab tabiiy-ilmiy tizimidagi vazifalari asosida; qoʻshiluvchi fan tarmoqlari asosida; integratsiya usullari va yoʻllari asosida; oʻquv rejasidagi oʻrni asosida; kursni oʻrganishga sarflangan vaqt asosida; oʻquvchilar uchun qiyinlik darajasi asosida va h.k.

Xulosa qilishimiz mumkinki, buyuk Vatanimizning istiqboli, kelajagi esa koʻp jihatdan oʻqituvchiga, uning salohiyatiga, yosh avlodni oʻqitish va tarbiyalash ishiga boʻlgan munosabatiga bogʻliq. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyotining rivojlanishi oʻqituvchidan ijodkor boʻlishini, eng yaxshi ilgʻor va zamonaviy texnologiyalarni oʻrganish va amalda qoʻllash asosida mashgʻulotlar olib borishni talab qiladi. Muallim faoliyatining samaradorligi uning pedagogik mahoratiga, kasbiy qobiliyatiga koʻp

jihatdan bog'liq. Darsda qo'llaniladigan usullar ko'p va xilma-xil. Biroq o'qituvchining mahorati ulardan mashg'ulot uchun zaruriy hamda o'quvchilarning bilim va saviyasiga mos usullarni tanlash hamda foydalanishdadir. Bugungi kun talabi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi har bir darsni yaxlit tasavvur qilish uchun uni loyihalashtirib olishi lozim. Buning uchun mavzu doirasida qilinadigan ishlarni rejalashtirish, to'plangan materiallarni tartibga solish, dars mashg'ulotining har bir daqiqasini hisobga olgan holda qilinadigan ishlarni taqsimlash, pirovard natijada ta'lim-tarbiya birligini amalga oshirish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 1.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., O'zbekiston. 1999-v.
2. Л. Н.Алексеева. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/ Л. Н. Алексеева// Учитель. - 2004. - № 3. - с. 28.
3. С.М.Вохмянина. По системе Марии Монтессори/ С. Н. Вохмянина// Педагогический вестник. - 2002. - № 8 (299). - с.7.
4. Т.Х.Дебердеева. Новые ценности образования в условиях информационного общества/ Т. Х. Дебердеева// Инновации в образовании. - 2005. - № 3. - с. 5.
5. Muhammadkadirovna, G. D., Abdulhamitovna, S. H., & Qizi, R. D. T. (2022). The Role of Innovative Training Methods in Individualization Training. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 272-279.
6. Qizi, R. D. T., & Qizi, M. F. M. (2021). Developing the critical thinking of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 769-772.
7. Toyirovna, R. D. (2021). Critical Thinking Process in School Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 165-168.
8. Rustamova, D. (2023). The importance of a cognitive approach to learning synonyms in primary grades. *barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 3(3), 32-36.
9. Niezova, M., & Rustamova, D. (2020). Ona tili darslarida oquvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi interaktiv va noan'anaviy metodlari. *Молодой ученый*, (4), 480-481.
10. Rustamova, D. T. K., & Mamajonova, F. M. K. (2022). STAGES OF ACTIVATING LEXICAL SYNONYMS IN THE SPEECH OF PRIMARY SCHOOL

STUDENTS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 750-756.

11. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 455-461.

12. Рахмонов, Е. К. о'ғ'ли, Qobilov, F. S. о'ғ'ли, & Berdimuradov, X. T. о'ғ'ли. (2023). RESPUBLIKAMIZDA YETISHTIRILAYOTGAN BUG'DOY DONLARINING FIZIK-KIMYOVIY KO'RSATKICHLARINING TAHLILI. *ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA*, 2(2), 95–101. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/144>

13. Qobilov, F. S. о'ғ'ли, & Raхmonov, E. K. о'ғ'ли. (2023). NON MAHSULOTLARINI TAYYORLASHDA QURUQ KLEYKOVINADAN QO'SHIMCHA SIFATIDA FOYDALANISH. *ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA*, 2(2), 58–63. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/139>

14. Sattorova, K. A. qizi, & Raхmonov, E. K. о'ғ'ли. (2022). NON MAHSULOTLARINI SIFATINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN QO'SHIMCHALAR. *INTERNATIONAL CONFERENCES*, 1(1), 29–31. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/230>

15. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(3), 141-148.

16. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. *ЎТМОЎИЙ ФАНЛАРДА INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 115-119.

17. Akhmedjanova, F. D. (2022). THE INFLUENCE OF LEARNING STYLES ON LANGUAGE TEACHING AT SECONDARY SCHOOL. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 5-9.

18. Djavairovna, A. F. (2022). The Impact of Learning Styles in Teaching English.

19. O'G'Li, X. T. X., Berdimuradov, E. K. O. G. L., BUG'DOY, R. N. U. T., & ASOSLASH, N. T. V. *CARJIS*. 2022.№ 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/navli-un-tortishda-bug-doy-navlarini-tanlash-va-asoslash> (дата обращения: 29.03. 2023).

20. Akhmedjanova, Farida Djavairovna. "The role and influence of feedback at foreign language learning achievement." *Science and Education 2.Special Issue 2 (2021)*: 89-93.